

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 200 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.

**Muassis:** “Ma’rifat-print-media” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR  
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK  
departamenti.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish .....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	
Transformatsiya chelovecheskogo kapitala v usloviyah cifrovizatsii i vnedreniya iskusstvennogo intellekta v bankovskuyu ekosistemu .....	24
<b>C.C. Ismailov</b>	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
<b>Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich</b>	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
<b>Sh.B. Donayev</b>	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
<b>Idrisov Alisher Otajonovich</b>	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari .....	53
<b>Sultanov Maximud Axmedovich</b>	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
<b>Amirdjanova Sitora Sunnat kizi</b>	
Faktory, vliyayushchie na uspeshnoe funktsionirovaniye skandinavskoy modeli razvitiya ekonomiki .....	61
<b>Bohidova Mehri Xasanovna</b>	
Analiz zarubежnogo opyta metodologii otsenki finansovogo potentsiala razvitykh stran .....	69
<b>Buranova Lola Vahobovna</b>	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi .....	78
<b>Babamatov Tolib Xakimovich</b>	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarinining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
<b>S.A.Karabayev</b>	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
<b>Yusupov Aziz Shuxratovich</b>	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
<b>Sherov Alisher Bakberganovich</b>	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili .....	107
<b>Sayidova Maftuna Hamroqul qizi</b>	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
<b>Umarova Malika Baxtiyarovna</b>	
Otsenka vliyaniya nalogovoy sistemy na finansovoe sostoyaniye organizacij .....	116
<b>Umida Oldashewa</b>	
Teoreticheskoe obosnovanie internet-marketinga v sozialnyx setyax .....	120
<b>Aripkhodjaev Saidamir Fuzuliddinovich</b>	

# MUNDARIJA CODERZHANIYE



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
<b>Ismoilov Sherzod Dilshodovich</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
<b>Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li</b>	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari .....	138
<b>Sharipov Narzullo G'ułomovich</b>	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
<b>Shadieva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
<b>Jumanazarova Z.K.</b>	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri .....	154
<b>Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich</b>	
Oliyohlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari .....	158
<b>Adizov Sanjar Rashidovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish .....	165
<b>Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi</b>	
Konceptual'naya osnova marketinga v sozialnyx setyax v turizme.....	174
<b>Kasimova Zilola Gulamiddinovna</b>	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantrish .....	182
<b>Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li</b>	
Aktual'nye problemy i puti resheniya privatizatsii gosudarstvennogo imushchestva v uzbekistane .....	186
<b>Shaxzod Saidullaev</b>	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish .....	192
<b>Ahmedov Komron Muhammadiyevich</b>	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....	196
<b>Quyjanov Xurshid Abdullayevich</b>	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari .....	200
<b>Bakayev Xurshid Maxmudovich</b>	



# XALQARO SAVDONING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

**Rashidov Bekzod Ulugbek o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Bank – Moliya  
Akademiyasi magistranti

**Isayev Laziz Baxtiyorovich**

O'zbekiston Respublikasi Bank – Moliya  
Akademiyasi magistranti

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi xalqaro iqtisodiy-moliyaviy aloqalari muammolari va yechimlari maqolada yoritib berilgan. O'zbekistonning savdo va iqtisodiy hamkorlikni yanada keng rivojlantirish va amalga tatbiq etish siyosati haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston va Rossiya o'ttasidagi iqtisodiy hamda savdo aloqalari, Eron, Ozarbayjon kabi xalqaro miqyosdagi davlatlar bilan iqtisodiy- siyosiy munosabatlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqobat, atrof-muhit, xalqaro iqtisodiy aloqalar, iqtisodiy islohotlar, tuzilmalar, xalqaro kelishuvlar, savdo hamda iqtisodiy hamkorlik.

**Abstract:** The problems and solutions of the international economic and financial relations of the Republic of Uzbekistan are covered in the article. Information is given about the policy of further development and implementation of trade and economic cooperation of Uzbekistan. The article also discusses economic and trade relations between Uzbekistan and Russia, economic and political relations with international countries such as Iran and Azerbaijan.

**Key words:** competition, environment, international economic relations, economic reforms, structures, international agreements, trade and economic cooperation.

**Аннотация:** В статье освещены проблемы и пути решения международных экономических и финансовых отношений Республики Узбекистан. Данна информация о политике дальнейшего развития и реализации торгово-экономического сотрудничества Узбекистана. В статье также рассматриваются экономические и торговые отношения между Узбекистаном и Россией, экономические и политические отношения с такими международными странами, как Иран и Азербайджан.

**Ключевые слова:** конкуренция, окружающая среда, международные экономические отношения, экономические реформы, структуры, международные соглашения, торгово-экономическое сотрудничество.

## KIRISH

O'zbekistonning tashqi, birinchi navbatda, xalqaro miqyosda olib boradigan siyosatining eng zarur, ustuvor yo'nalishi chegaradosh davlatlar bilan munosabatlar hamda har tomonlama hamkorlik va o'zaro kelishuvni yanada kuchli rivojlantirish, mustahkamlash va uni tatbiq etishdandan iborat. Mintaqaviy munosabatlarni mustahkamlash Markaziy Osiyoda va unda joylashgan davlatlar o'ttasida tinchlik, siyosiy-iqtisodiy barqarorlik va farovonlikning eng zarur sharti deb hisoblaymiz.

"O'zbekiston G'arb, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Janubi-Sharqiy hamda Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalar va munosabatlarni jadal hamda izchil rivojlantirishga va ularni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to'ldirishga intilmoqda.



O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtaida 1996-yilda imzolangan Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim asosida nafaqat siyosiy muloqot, balki Yevropa Ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy aloqalar ham rivojlanib, mustahkamlanib bormoqda.

O'zbekistonning Shimoliy va Janubiy Amerika davlatlari, xususan, AQSh bilan hamkorligi kengaymoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqdagi ruhi, dini, urf-odat va an'analari yaqin bo'lgan musulmon sivilizatsiyasi mamlakatlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbekiston bilan ushbu mamlakatlар o'rtaida iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi ham ijobjiy dinamikaga ega<sup>1</sup>.

Yana eng muhim yo'naliш – MDH davlatlari bilan hamkor bo'lib, hamkorlik doirasida ishtirok etuvchi davlatlar umumiy hamda ushbu davlatlarning milliy-iqtisodiy manfaatlari va maqsadlarini ko'p tomonlama va ikki tomonlama maqsadda amalga oshirish bo'yicha o'zining muhim o'rinnarini egallashlari mumkin.

O'zbekistonning xalqaro savdo bozorga chiqishi barcha siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy muhitni isloh qilish va tubdan yangilash asnosida sodir bo'immoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning tayyor modelisiz bozor transformatsiyasiga asoslangan yo'lda o'tdi. Nafaqat davlatning iqtisodiyotini isloh qilish, balki ushbu davlatning o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy xalqaro munosabatlarga olib chiqishning tubdan yangi usul va mexanizmlarini yaratish zarur edi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada takomillashtirish siyosati sababli mamlakatimizda ochiq bozor iqtisodiyotini yaratish hamda ushbu bozorni kengaytirish bo'yicha ko'plab ishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda, buning asosida O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlari va jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon savdo ilmiy asoslarining birinchilari 1776-yilda Adam Smit qalamiga mansub "Xalq tabiatini va boyligini o'rganish" kitobida yozilgan. Adam Smit o'z asarida agar tovar birligi uchun boshqa jahon mamlakatlarga qaranga ko'proq mahsulot yetkazib beroladigan bo'lsa, ushbu davlat mutlaq ustunlikka ega.

"Mutlaq afzalliliklar tabiiy omillar shu o'rinda iqlimiyl tabiiy sharoitlar hamda tabiiy resurslarning mavjudligi bilan yaratilishi mumkin. Tabiiy afzalliliklar esa qishloq xo'jaligi hamda sanoatda muhim o'rinn tutadi.

## TADQIQOT METODOLIYASI

O'zbekiston Respublikasi har tomonlama xalqaro jahon iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Hozirda mamlakatimizning Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya, Italiya, Fransiya, Koreya Respublikasi, Turkiya hamda Xitoy kabi dunyoning eng ilg'or davlatlari bilan munosabatlari jadal rivojlanib kelmoqda.

Mamlakat tashqi savdo siyosatining asoslaridan biri milliy iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada mustahkamlash, mamlakat eksport munosabatlarini rivojlantirish hamda kengaytirishga qaratilgan dasturni ishlab chiqish va uni amalga oshirishdan iborat. Ushbu dastur maqsadi eksport hajmining muntazam ravishda o'sishi uchun muhim shart-sharoitlarni ta'minlash va mamlakatimizda mayjud resurs hamda ishlab chiqarish muhitidan maksimal foydalanish, uni yanada rivojlantirish asosida ushbu dasturning tuzilmasini takomillashtirish va amalga oshirishdan iborat.

Tovar yetkazib berish butun dunyoning 78 davlatlariga amalga oshirilib kelinmoqda. Eksport tarkibida ma'lum bir darajada sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi, shu asosda tovar eksporti hajmi qisqardi, shu qatorda tayyor mahsulotlar, qayta ishlab chiqarish darajasi yuqori hisoblangan mahsulotlar yetkazib berish hajmi oshmoqda.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga bir qancha turdag'i tovar hamda mahsulotlar, jumladan, poyabzal, alkogollli va alkogolsiz ichimliklar, yoqilg'i importi kamaydi. Oziq-ovqat, iste'mol mahsulotlari importi ikki karra kamaydi.

Import hajmining eng kamida 74 foizini ishlab chiqarish va texnik maqsadlardagi uskunalar va mahsulotlar importi tashkil etib kelmoqda, bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim strategik maqsad va tamoyillariga mos keladi.

O'zbekistonda tashqi savdo rejimini liberallashtirish va uni JST talablariga moslashtirish bo'yicha tizimli siyosat olib borilmoqda.

O'zbekistonda YalM o'sishi 2000-yillarning o'rtalaridan boshlab yuqori darajada saqlanib qoldi. Bu, birinchi navbatda, mamlakat eksport tovarlari (mis, oltin, tabiiy gaz va paxta) uchun qulay savdo sharoitlari, davlat tomonidan makroiqtisodiy boshqaruv, xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyati cheklanganligi bilan bog'liq. 2014-yilda iqtisodiyot 8,1 foizga o'sdi. Bu kuchli o'sish 2015-yilda (8%) va 2016-yillarda (7,8%) biroz

<sup>1</sup> Khan SM Uzbekistan-Pokistan ikki tomonlama munosabatlari: yangi istiqbollar va yangi imkoniyatlar // Mudofaa jurnali. 2017. V. 20. No6. S. 32.



kamaydi. O'sish 2017-yilda 7 foiz, 2018-yilda 7,3 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bunday o'sish ko'rsatkichlari O'zbekistonni MDHning eng dinamik iqtisodiyotlaridan biriga aylantiradi”<sup>2</sup>.

Respublika mustaqillikka erishgach, hukumat, xususan, elektr energiya bilan o'zini o'zi ta'minlashga asoslangan bosqichma-bosqich amallar hamda import o'rnni bosuvchi strategiyasini tanlab kelmoqda. Bu siyosatlarga tayyor tovarlarni o'zlashtirish dasturi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, tovar yetkazib beruvchilarga ko'maklashish, kichik hamda o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish sohasini rag'batlantirish dasturi kiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

“O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi axborot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi eng yirik tarmoq bo'lib qolmoqda va mamlakat yalpi ichki mahsulotining 46,8 foizini, sanoat va qishloq xo'jligi esa yalpi ichki mahsulotning mos ravishda 33,9 va 19,3 foizini tashkil etadi”<sup>3</sup>.

Bundan tashqari, respublikamiz tabiiy resurslarga boy: ko'mir, mis, rux, volfram, kumush va uran. Mamlakatimiz gaz hamda neftning eng yirik ishlab chiqaruvchisi bo'lib, o'zining sanoatini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib bormoqda.

O'zbekiston tashqi savdosi hajmining qariyb 20 foizini tashkil etuvchi Rossiya O'zbekiston Respublikasining eng muhim savdo-iqtisodiy hamkor bo'lib, 2003-yil oxirida tovar ayirboshlash hajmi 998,7 million AQSH dollariga (o'sish 25% ga), 2004-yilda 1379, 0 mln.dollarga (38% o'sish) yetdi. 2005-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1762,7 milliard dollarga yetdi.

2004-yilga nisbatan 27,7 foizga o'sdi. 2006-yilda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi tovar aylanmasi 2,4 milliard AQSH dollarini tashkil etdi”<sup>4</sup>.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2017-yilda 27 milliard dollarni tashkil etganini aytib o'tishimiz mumkin.

“Toshkent, O'zbekiston (UzDaily.com) – 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi qariyb 27 milliard dollarni tashkil etdi. Bu haqda O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi xabar bermodqa.

So'nggi yillarda respublikada eksport tarkibi o'zgarib, tovar va xizmatlarning deyarli barcha guruhlarida o'sish kuzatildi.

Mashina va asbob-uskunalar eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 60,1 foizga, transformator va akkumulyatorlar 54,8 foizga, kabel va sim mahsulotlari 33,3 foizga, qozonxonalar, asbob-uskunalar va mexanik qurilmalar hamda ularning qismlari eksporti 24,0 foizga o'sdi.

Alkogolli va alkogolsiz ichimliklar eksportining 61,1 foizga, bug'doy 32,2 foizga, meva - sabzavot va ularni qayta ishslash mahsulotlarining 15,6 foizga o'sishi hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmi 26,1 foizga oshdi.

Qora va rangli metallar eksporti hajmining 29,5 foizga oshishi rux va undan tayyorlangan mahsulotlarning 47,5 foizga, alyuminiy va undan tayyorlangan buyumlarning 80,0 foizga, mis va undan tayyorlangan buyumlarning 34,7 foizga oshishi hisobiga kuzatilmoqda.”<sup>5</sup>

Import tarkibida asosiy qismini mashina hamda asbob va uskunalar – 38,9 foiz, kimyo tovarlari hamda undan tayyorlangan mahsulotlar – 16,5 foizga to'g'ri keldi.

Eksportning jami hajmida xizmat ko'rsatish ulushi 25,1 foizni qamrab olmoqda, bunda transport xizmat ko'rsatish 11,5 foizni, sayohat xizmatlari 11,3 foizni tashkil etadi.

“MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasining 28,7 foizini tashkil etuvchi Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston asosiy tashqi savdo hamkorlari bo'lib, boshqa davlatlarga Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston kiradi. Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSH, Italiya jami tashqi savdo aylanmasining 41,6 foizini tashkil etadi.

Meva-sabzavot va ularni qayta ishslash mahsulotlari eksporti hajmi 708,8 million dollarni tashkil etdi yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,6 foizga o'sdi.

Meva-sabzavot va ularni qayta ishslash mahsulotlarining umumiy hajmida meva va rezavorlar ulushi 35,9 foizni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,0 foizga o'sgan), sabzavotlarniki 30,7 foizni (18,6 foizga), uzum 22,5 foizni tashkil etadi (12,2 foizga), qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari – 4,1 foizni (49,9 foizga) tashkil etdi”<sup>6</sup>.

2 Isomidinova G., Singx JSK Moliyaviy savodxonlikni belgilovchi omillar: Toshkent, O'zbekistondagi yosh talabalar orasida miqdoriy tadqiqot // Biznes va menejment elektron jurnali. 2017. V. 2. №1. S. 61-75.

3 imv.uz

4 Novikova A.A. Mintaqaviy savdo munosabatlarini o'rganish uchun yangi xalqaro statistik guruhlari. Rossiya tashqi iqtisodiy byulleteni. 52-sahifa.

5 UzDaily.com

6 Astanaqulov Olim va Nazokat Qurbonaliyeva. “O'ZBEKİSTONDA TOSHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.” Iqtisodiyot va ta'llim.



To'qimachilik tovarlari eksporti hajmi 1,13 milliard dollarni tashkil etib kelmoqda yoki oldingi yilning ushbu davriga nisbatan 22,8 foizga o'sdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni ayta olamizki, Xalqaro savdo tashkiloti – davlatlar o'rtaida savdo-sotiq munosabatlarini nazorat qilib turuvchi xalqaro tashkilotdir.

"Xalqaro jahon savdoni liberallashtirish, savdo bitimlarining odilligini ta'minlash, iqtisodiy o'sish va xalq farovonligini oshirish JSTning asosiy funksiyalari sirasiga kiradi. JST unga a'zo bo'lgan mamlakatlardan ichki bozorni erkinlashtirishni qat'iy talab qiladi.

Shunday ekan, O'zbekiston uchun kutiladigan natija nima bo'ladi? Albatta, har bir ishning samaradorligi o'sha davlat, muhitdagi yaratilgan sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga chambarchas bog'liq kechadi. Buning uchun:

iqtisodiyotni erkinlashtirish va sanoat tarmoqlari baravar rivojlanishini tartibga solish;

narx-navoni tartibga solish va maqbul soliq tizimini vujudga keltirish; alohida sektorlar va ishlab chiqarishda subsidiyalarni saqlash;

tovarlarni standartlash va sertifikatsiya qilish tizimini tartibga solish; xorij sarmoyalari jozibadorligini oshirish; import va eksport boj to'lovlari tarifini tartibga solish talab qilinadi.

Har bir davlatning bu tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni o'rtacha 8-10, ba'zi davlatlar uchun esa 10-15 yilni tashkil etadi. O'zbekiston 1995-yilda ariza topshirgan bo'lishiga qaramasdan, faqat 2017-yildan boshlab, ijobji siljish kuzatilyapti. Lekin ustuvor sohalarning boshqaruvi 30 yillardiki monopolistlarning qo'lida turibdi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, dunyoning eng katta iqtisodiyot egalari – AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlar JSTdan unumli foydalana oladi. Kichik davlatlar, jumladan, O'zbekiston ham bu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmasligi ularning umumiyligi resurslariga borib taqaladi. Mamlakatimizning JSTga a'zoligi YEOllning tartib-qoidalari va monopoliyasiga tushib qolmaslikning oldini oladi, deb hisoblaymiz. Ichki monopolistlardan qutulish muammosi hal bo'ladi. Xalqaro darajada erkin raqobat tizimi o'z-o'zidan yaratiladi”<sup>7</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Khan SM Uzbekistan-Pakistan ikki tomonlama munosabatlar: yangi istiqbollar va yangi imkoniyatlar // Mudofaa jurnali. 2017. V. 20. №6. S. 32.
2. Isomidinova G., Singx JSK Moliyaviy savodxonlikni belgilovchi omillar: Toshkent, O'zbekistondagi yosh talabalar orasida miqdoriy tadqiqot // Biznes va menejment elektron jurnali. 2017. V. 2. №1. S. 61-75.
3. Robner R., Zikos D. Suvni boshqarish bo'yicha resursdan foydalanuvchilar o'rtaida bir xillik va heterojenlikning roli: O'zbekistonda sug'orish bo'yicha iqtisodiy dala tajribasidan olingan saboqlar // Suv iqtisodiyoti va siyosati. 2017 yil.
4. Astanaqulov Olim va Nazokat Qurbonaliyeva. "O'zbekistonda toshqi savdoni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari." Iqtisodiyot va ta'lim.
5. Gadiev Yu.A. Mintaqaviy iqtisodiy o'sish va rivojlanishning xorijiy nazariyalari. // Mintaqqa iqtisodiyoti. 2009-yil.
6. Novikova A.A. Mintaqaviy savdo munosabatlarini o'rganish uchun yangi xalqaro statistik guruqlar. Rossiya tashqi iqtisodiy byulleteni. 52 sahifa.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

